



Muhaqqiq shayx Ahmad Shokir

Abdullaev Muhammadsodiq

Imom Buxoriy nomidagi

Toshkent islom instituti 4-kurs talabasi

Muhammadsodiqabdullayev0907@gmail.com

Annotatsiya: Har bir asrning yetuk olimi bo'lganidek, shayx Ahmad Shokir ham shunday olimlardan edi. Mazkur maqolada hijriy XIV asr (mil. XIX asr) boshlarida Azhari sharifning yirik ko'zga ko'ringan olimlaridan biri Shayx Ahmad Muhammad Shokirning ilmiy faoliyatini o'rganishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Ahmad Muhammad Shokir, Abul Ashbol, Abu Alia, Misr qozisi, Sudanga qozici, Azhar universiteti, Gardon universiteti, tafsir, hadis, usul va hanafiy fiqhi, sunnat ilmlarini, hadis fiqhi, arab tilini, Al-Bais al-Hasis.

To'liq ismi shayx Ahmad ibn Muhammad Shokir ibn Ahmad ibn Abdulqodir Abul Ashbol. Shayx Ahmad hijriy 1309-yilda (mil. 1892-yilda) jumadus soniy oyining yigirma to'qqizinchisida juma kuni tong otgandan keyin Qohira shahrida dunyoga keldi. U shaharning sharaflil oilalaridan bo'lgan "Abu Alia" oilasida dunyoga kelgan, bu oila nasl-nasabi Imom Husayn ibn Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladi. Otasi unga Ahmad (Shamsul aimma Abul Ashbol) deb ism qo'ygan.¹

Otasi shayx Muhammad Shokir Misr qozisi bo'lib, Azharda ta'lim olgan. Misrga qozi bo'lgandan keyin, u Azhardan vakil o'laroq Sudanga qozi etib ta'yinlandi. Shu bilan birga katta ulamolar kengashi a'zosi bo'ldi.

¹ Shayh Ahmad Shokir. "Al-bais al-hasis". "Dorul-maorif". 2015-yil.



Shayx Ahmad otasi Sudanga qozi bo'lganda u bilan birga Sudanga ko'chib o'tgan. Ba'zi ma'lumotlarda uning otasi Sudanning birinchi qozisi deb ham aytiladi. Abul Ashbol G'urdin (Gardon) universitetida tahsil olgan, Misrga qaytgandan so'ng Iskandariyyada ta'limni davom ettirgan. Keyin Al-Azhar universitetiga o'qishga kiradi. Al-Azharda ta'lim olishi uning hayotida yangi davrning boshlanishi edi. Ahmad Shokir Al-Azharda ta'lim olish bilan birga boshqa katta olimlardan ham ilm olgan. U ko'plab olimlar bilan aloqa o'rnatishga va Qohiradagi mavjud ilmlarni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Shayx Ahmadning aql-zakovati yoshligidanoq namoyon bo'la boshlagandi. U she'r o'qishni yaxshi ko'rar va adabiy kitoblarni mutolaa qilardi. Shundan so'ng hadis ilmi o'rganishga alohida e'tibor qaratdi va bu ilmda yetuk mutaxassisga aylandi.

Abul Ashbolning ko'zga ko'ringan ustozlarini avvalgisi bu otasi edi. Ahmad otasidan tafsir, hadis, usul va hanafiy fiqhini o'rgandi. Huddi shuningdek shu vaqtning o'zida ko'plab mashoyix ulamolardan dars oldi. Ulardan taniqlilari:

Shayx Abdusalim fiqhiy, Shayx Mahmud Abu Daqiqa, Shayx Abdulloh ibn Idris Sanusiy, Shayx Ahmad ibn Shams Shinqitii, Shayx Jamoliddin Qosimiy, Shayx Tohir Jazoiriy, Shayx Muhammad Roshid Rizo va boshqalar.

Shayx Abul Ashbol 1917-yilda Al-Azhar universiteti shahodatnomasini olgandan so'ng qozi va oliy mahkama a'zosiga aylandi. Keyin 1952-yil nafaqaga chiqqunga qadar shu lavozimda ishladi. Qozi bo'lib ishlagan davrida ham o'qish va tasniflashdan to'xtamagan, balki o'zining qimmatli izlanishlari va asos kitoblarni tadqiq qilish bilan shariat kutubxonasini boyitgan.

Bu davr mobaynida shayx Abul Ashbol hadis ilmi bilan qattiq shug'ullanib, sunnati mutahharoga to'liq va mukammal xizmat qilib o'tdi va unga muvofiq kitoblarni qayta tiklashlikda o'zining ulkan hissasini qo'shdi. U ilmiy uslubda yozilgan ko'plab kitoblarni nashr etdi.



Shayx sunnat ilmlarini, hadis fiqhi va arab tilini qamrab oladigan ilmiy izlanishlarini ham taqdim etdi. Bu ilmiy izlanishlar o‘zining Qur’on va sunnatga asoslangan ilmiy yondashuvi, fikrga mutaassibsizligi va taqlidda qotib qolmagani bilan ajralib turardi. Uning sunnatga xizmat qilishdagi harakatlari tahqiq va taliq qilgan asarlarini ahamiyati yuqori ekanini bildiradi. Uning tahqiq kitoblari:

1. Imom Shofe’iyning “Risola” kitobini tahqiq qilgan. Bu Shayx Ahmad Shokirning birinchi kitobidir.
2. Imom Termiziyning Al-Jome’ asariga tahqiq qilgan.
3. Imom Ahmad ibn Hanbalning Musnadini sharh va tahqiq qilgan.
4. Hofiz Munziriyning “Muxtasar Sunan Abi Dovud” asarining tahqiq qilgan.
5. Sahihi Ibn Hibbon asarini birinchi qismini tahqiq qilgan.
6. Hadis ilmi bo’yicha yozilgan Imom Suyutiyning “Alfiya” asariga sharh yozgan.
7. Hofiz Ibn Kasirning “ixtisori ulumul hadis” asariga “Al-Bais al-Hasis” nomli sharh yozgan.
8. Ibn Hazmning “Ahkom fi usulil-ahkom” kitobini tahqiq qilgan.
9. Hofiz ibn Kasirning tafsirini qisqartirib “Umdatut tafsir” asarini yozgan
10. Tafsiri Tabariydagi hadislarni taxrij qilgan.
11. Amir Usama ibn Munqidning “Lubob al-adab” kitobini tahqiq qilgan.
12. “Sharhi Aqidatut Tahoviy” kitobini tadqiq qilgan.

Uning vafoti hijriy 1377-yil Zulqa’da oyining yigirma oltinchisiga (mil. 1958-yil 14-iyulga) to‘g‘ri keladi.²

² Shayh Ahmad Shokir. “Al-bais al-hasis”. “Dorul-maorif”. 2015-yil.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. -T “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2012-yil.
2. Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T “Hilol-Nashr”, 2019-yil.
3. Hofiz Ibn Kasir “Ixtisoru ulumul hadis”. “Dorul-ilm”. 2013-yil. 29-noyabr.
4. Shayh Ahmad Shokir. “Al-bais al-hasis”. “Dorul-maorif”. 2015-yil.